

NAMANGAN SHAHAR ATMOSFERA HAVOSI IFLOSLANISHI VA UNI KAMAYTIRISH CHORALARI

E.A.Soliyev,

*Namangan davlat universiteti Geografiya kafedrası dotsenti, geografiya fanlari nomzodi
Elektron manzil: elmurodsoliev74@mail.ru*

B.B.Mirabdullayev,

*Namangan davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti
Elektron manzil: b.mirabdullayev.007@gmail.com*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15169258>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Namangan shahri atmosfera havosi tarkibi o‘zgarishi va uning oqibatlari, kimyoviy “chiqindilar” va aerazollar miqdori ortishi bilan bog‘liq vaziyatlar tahlili o‘rganilgan. Shahar havosini muhofaza qilish va ifloslanish darajasini kamaytirish bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar. “Effektiv ifloslanish”, aerazollar, PM-2,5, chang, uglerod oksidi, yashil maydonlar.

Bilamizki, havoning ifloslanishi insonlarda turli kasalliklarni, jumladan, nafas yo‘llari infeksiyalari, yurak-qon tomir kasalliklari va o‘pka saratonini keltirib chiqarishi va xatto o‘limga ham olib kelishi mumkin. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda havoning ifloslanishidan yuzga keladigan yillik o‘lim darajasi har 100 ming aholi soniga nisbatan 81,1 nafarni tashkil etadi. Solishtiradigan bo‘lsak, ushbu ko‘rsatkich Ruminyada 58,3, Bolgariyada esa 61,8 kishini tashkil qiladi[1].

Respublikamizda aholisi soni jihatdan poytaxtimizdan keyingi o‘rinni egallovchi Namangan shahrining atmosfera havosini doimiy nazorat qilish va kerakli choralarni ko‘rish har doim dolzarb.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida respublika bo‘ylab atmosferaga chiqarilayotgan chiqindilar miqdorini tahlil qilganimizda, eng yuqori qiymatlar Toshkent, Qashqadaryo va Farg‘ona viloyatlarida kuzatildi. Farg‘ona vodiysi viloyatlarning bu boradagi miqdorlari biz o‘rganayotgan davrda (2012-2021) quyidagicha holatni tashkil etgan:


1-grafik

2012 va 2021-yillarda Farg‘ona vodiysi viloyatlaridagi sanoatdan atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori

ming tonna

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi




1-grafik. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/ecology-2>


Ya'ni vodiya 2012-yilda eng ko'p miqdorda ifloslovchilar chiqargan viloyat Farg'ona va mos ravishda Andijon hamda Namangan viloyatlarida bo'lgan bo'lsa, 10 yil o'tib 2021-yilda Namangan viloyatida holat anchagina ko'tarilib 24 ming tonnani tashkil etgan. Farg'ona va Andijon viloyatlarida esa aksincha kamayish kuzatilgan[2].

Namangan viloyat Gidrometeorologiya markazining Namangan shahar atmosfera havosini kuzatuvchi hamda ifloslanishini aniqlash uchun tashkil etilgan 3 ta post, nazorat punkti ma'lumotlaridan foydalanib, Namangan shahar atmosfera havosi tarkibidagi asosiy ifloslovchi moddalar o'rganildi. Ushbu nazorat punktlarida asosan chang zarrachalari, oltingugurt dioksidi, karbonat angdrid, azot dioksidi kabi moddalarning miqdori aniqlab boriladi. Mazkur nazorat punktlaridagi yuqorida aytilgan moddalarning 2012-2021-yillardagi ma'lumotlari o'rganilganda quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.

chang va oltingugurt




karbonat angdrid



1-rasm. Namangan shahrida atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar miqdorining ortib borishi

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, chang zarrachalari, oltingugurt dioksidi, azot dioksidi va karbonat angidrid miqdori mos ravishda 2012-yildan 2021-yilga qadar ortib borgan.



2-rasm. Kimyoviy ifloslantiruvchilarning haroratga bog'liqligi

Atmosferada mavjud kimyoviy gazlar va aerozollar miqdori yilning issiq vaqtlarida uchuvchanlik xossasi ortishi bilan bog'liq tarzda ifloslanish ko'rsatkichlari sezilarli ortmoqda. Uglerod oksidi ulushi yilning issiq yoz oylarida nisbatan yuqori darajaga ko'tarilmoqda. Bunda asosiy sabablardan harorat yuqoriligi hamda transport qatnovi bilan bog'liqdir. Taqqoslash uchun aytish mumkinki, atmosferaga tashlanmalar miqdori (ayniqsa PM-2.5) qish va yoz oylarida deyarli bir xil miqdorni tashkil qilsada, biroq, yozda harorat bilan bog'liq tarzda ularning uchuvchanlik miqdori 3-5 sutkagacha cho'zilmoqda va natijada ifloslanish holati go'yoki takrorlanib "effektiv ifloslanmoqda".

Ma'lumot o'rnida aytsak, PM-2.5 mayda zarrachasi soch tolasidan 40 marta mayda, ko'zga ko'rinmas zarrachalar bo'lib, uning muntazam havo tarkibida yuqori darajada bo'lishi inson salomatligi, o'pka to'qimalari orqali qonga o'tish xususiyatidan kelib chiqib paydo bo'ladigan kasalliklar, nafas yo'llari, allergiya, ko'z shilliq pardasi zararlanishi, teri kasalliklari, xatto saraton kasalligini ham keltirib chiqirishi mumkin[5].

Namangan shahri atmosfera havosining ifloslanishi holatlaridan kelib chiqsak, havoni asrash va muhofaza qilish uchun ko'plab takliflar ishlab chiqish mumkin. Avvalo, atmosfera ifloslanish darajasini kamaytirish zamonaviy texnologik vositalar orqali va iqlimiy sharoitlarni hisobga olgan holatda amalga oshirilishi joiz. Shaharda yashil maydonlar miqdori va ulushini oshirishda ekiladigan daraxt turlari, qaysi iqlim sharoitlarida o'sishi va ularning umr davomiyligiga ham alohida e'tibor qaratish

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

kerak. Misol uchun, qayrag‘och ochiq dalalar va o‘rmonda 300-400 yil yashasa, shahar parklarida 120-220 yil, avtomobil yo‘llari atrofida 40-50 yil yashaydi holos.

Shu asnoda, shahar atmosfera havosini muhofaza qilish, unga tashlanayotgan chiqindi tashlanmalar miqdorini kamaytirish bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

a) Yuk tashuvchi transportlar harakatlanishini tartibga solish va vaqt rejimlarini joriy qilish;

b) Benzinda yuruvchi avtomobillarni kamaytirish. Misol uchun, gaz ballonli avtobus motori ishlab turgan vaqtda 0,1 % zaharli gaz chiqaradi, benzinda ishlovchi avtomobillar esa havoga 2-3 % zaharli gaz chiqaradi. Demak, benzindan ko‘ra gazdan foydalanish ifloslanishni 20-30 barobarga kamaytiradi.

c) Shaharlar inson yashashi uchun qulay va musaffo havo bo‘lishi uchun albatta yashil maydonlar ulushi va ularning vertikal va gorizontaal o‘lchamlari ham yetarlicha katta bo‘lishi kerak. Ya‘ni daraxtlar bo‘yi 5-7 m dan va hajmi ham 15m³ dan ortiqroq bo‘lsa samarali bo‘ladi.

d) Uy-joy manzillari bilan sanoat zonasi oralig‘ida kengligi kamida 100 m dan bir necha kilometr kenglikdagi yashil o‘simliklardan iborat yashil himoya zonasi bo‘lishi yaxshi samara beradi.

e) Shahardagi binolar qurilishida binolarning shamol yo‘nalishlariga xalaqit bermasligini hisobga olish.

f) Chorsu va Sardoba singari bozorlarni transport tugaunlari va asosiy arterial yo‘llar yoqasidan boshqa hududga ko‘chirish va maydonini to‘g‘ri taqsimlash, yashil hududlari miqdorini oshirish.

g) Chinor, qayrog‘och, kashtan, pavloniya, kedr, dup, oq dereya kabi manzarali va hajmi yirik hamda uzoq umr ko‘ruvchi turlarini ekish.

h) Yirik markazlar va aholi ko‘p to‘planuvchi qismlarga ko‘p qavatli yer osti-yer usti avtomobillar qo‘yish joylarini tashkil etish va bunga qo‘l urmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarga imtiyozlar, subsidiyalar berish.

Bundan tashqari, vodiy aholisini hazonlarni yoqmaslik, nosoz transport vositalaridan iloji boricha foydalanmaslik, binolarni isitishda zamonaviy, xalqaro standartlarga javob bera oladigan texnologiyalardan foydalanish kabi bir qator muhim masalalarga jiddiy e‘tibor qaratishlarini ta‘minlash va bu boradagi savodxonlik darajasini oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Soliev A. E., Berdiyev G. H., Akbarov G. A. Statistical and comparative analysis of temperature and oil in Fergana.2022.
2. Qoriyev Mirzohid, Mirabdullayev Baxodirjon, Olimjonova Marhabo. Namangan viloyati atmosfera havosining ifloslanishi. Geografiya: tabiat va jamiyat | География: природа и

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

общество Geography: nature and society. №1 (2021) Doi <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0834-2021-1>

3. Б.Б. Мирабдуллаев, Э.А.Солиев. Наманган шаҳри ҳаво ҳароратига аэрозолларнинг таъсири. Иқтидорли талабалар илмий ахборотномаси 2019 йил 2- сон.

Internet manbalar

1. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/ecology-2>
2. <https://hydromet.uz/uz/node/20>

